

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

BADIIY ADABIYOT VOSITASIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Muxammadiyeva Feruza,

maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi, Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti

Badiiy adabiyot bolalar uchun ilk tarbiya vositasi, ma'naviy-axloqiy boyliklarning bitmas-tuganmas xazinasidir. Bolalarga mo'ljallab yaratilgan og'zaki ijod namunalari xalqning ming yillar mobaynida yosh avlodni tarbiyalashda xizmat qilib kelgan buyuk pedagogik merosidir.

Xalq pedagogikasi xalq, jamoa ijodkorligining mahsuli sifatida milliy, umuminsoniy qadriyatlarning tarixiy taraqqiyot bosqichini belgilab beruvchi tayanch manba hisoblanadi. U ko'pqirrali jarayon bo'lib, tarkibiy vositalar, (xalq qo'shiqlari, afsona, rivoyat, ertak, doston, maqol, matal, qo'shiq, latifa, lof, xalq dramasi, askiya), xalq tasviriy va amaliy san'ati (xalq yaratgan badiiy-estetik san'at namunalari, teatr, musiqa), ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida paydo bo'lgan, rivojlangan qadriyat darajasiga ko'tarilgan an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, amaliy faoliyatdagi ilg'or tajribalar majmuidan iborat.

Badiiy adabiyot vositasida bolalarga ta'lim-tarbiya berish jarayonini o'rganib chikish nihoyasida biz ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishning konseptual psixologik-pedagogik shart-sharoitlarini aniqladik:

I. Badiiy adabiyotning ma'naviy jihatlarini idrok qilish quyidagi tamoyil asosida amalga oshiriladi:

- a) maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy tushunchalar hosil qilish;
- b) asarlarning mazmuni haqida fikr yuritish;
- s) asarlardagi hayotiy voqealarni tahlil qilish orqali xulosa chiqarish.

2. Amalga oshirilgan kuzatish va o'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatdiki, bolalarning ma'naviy shakllantirish, eng avvalo, ularning badiiy adabiyotga qiziqishlari, ularni amaliy-estetik jihatdan tahlil qila olishlari orqali amalga oshiriladi hamda mashg'ulotlar davomida ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Hissiy holatlardan foydalanish, intellektual ta'sir o'tkazish va bolalarni ma'naviy shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

3. Bolalarga badiiy asarlarni o'rgatish jarayonini ma'naviy ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir.

4. Bolalarni ma'naviy shakllantirish jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlashda guruhda ijodiy muhit, do'stona munosabat o'rnatish lozim.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan ayon bo'ladiki, badiiy adabiyot vositasida bolalarni ma'naviy shakllantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida o'z yechimini kutmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deya e'tirof etilishi, ijtimoiy hayotning barcha sohalarining demokratik, insonparvarlik g'oyalarining yetakchi o'rin egallashi yo'lida olib borilayotgan amaliy harakatlar respublika uzluksiz ta'lim tizimini jaxon standarti darajasiga ko'tarish tuchun zarur shart-sharoit yaratish lozimligini ko'rsatadi. Xalq ta'limi tizimini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini I.Karimov o'z asarlarida belgilab berdi va bermoqda.

Pedagog olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida badiiy adabiyotning shaxsni shakllantirishdagi o'rni va ahamiyati kattaligi ko'plab dalillar yordamida ko'rsatib berilgan. Manbalarda ta'kidlanishicha, shaxsning kamol topishida uning dunyoqarashi, ma'naviyati, axloqi, madaniyatlilik darajasi, his-tuyg'ularini rivojlantirishda badiiy adabiyot alohida o'rin tutadi.

Ma'naviy tushunchalarni bilib olish kundalik turmushda sodir bo'ladigan turli voqealar va psixologik xolatlarga taqqoslab ko'rish natijasida mukammal shakllangan odatlar, ko'nikma va malakalar hosil bo'la boshlaydi. Bolalarning maktabgacha ta'lim muassasalarida o'tkazgan davri davomida gurux, bog'cha jamoasi, oila, maxallada o'z o'rnini topa olishda badiiy adabiyot alohida o'rin tutadi. Aniq mazmun asosida o'tkaziladigan badiiy adabiyot mashg'ulotlari, mashg'ulotlardan tashqari ishlar va umumiy tarzdagi muhit bolalarning ma'naviyatini shakllantirish uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalar hali maktabga bormay turib, oqilona harakat qiladigan, tevarak-atrofnini mustaqil kuzatadigan, kattalar yumushiga qarashadigan, ravon so'zlab, fikr yuritadigan, birmuncha bilim va malaka orttiradigan bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar adabiyoti ham pedagoglar, ham adabiyotshunoslar tomonidan tekshiriladi va o'rganiladi.

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

Pedagog olimlarning ilmiy tekshirish ishlari badiiy tarbiyaning usullarini, asosan maktabgacha ta'lim dasturiga kiritilgan xalq og'zaki ijodi namunalari va yozuvchilarning asarlarini bolalarga o'qib va hikoya qilib berish, yodlatish, ifodali aytish yo'llarini tekshirish, umuman u yoki bu badiiy asarda aks etgan g'oyalarni bolalar ongi va qalbiga singdirish usullarini ko'rsatish, bu boradagi ilg'or tajribalarni umumlashtirish va targ'ib etishga qaratiladi.

Adabiyotshunos olimlarning ilmiy ishlari esa maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar adabiyotining nazariy asoslarini, tarixiy taraqqiyotini o'rganish, yozuvchilar badiiy mahoratini, uslubini ochib berish, har xil muammaolarni ilmiy asoslash, erishilgan yutuqlarni umumlashtirib, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni xolisona ko'rsatish va mazkur adabiyot taraqqiyotiga ko'maklashishni maqsad qilib qo'yadi. Umuman, kattalar adabiyotini tekshiruvchi adabiyotshunoslar bilan bolalar adabiyoti bo'yicha shug'ullanuvchi adabiyotshunoslarning vazifasi deyarli bir xil bo'lsa-da, ular o'rtasidagi asosiy farq bolalar va kattalar adabiyotining o'xshash va o'ziga xos xususiyatlariga, qonuniyatlariga rioya qilinishida aniq ko'rinadi.

“Bolalarning o'ziga xos dunyosini, ruxiyatini chuqur bilmagan yozuvchi ularga ma'qul bo'ladigan, ruxiy va ma'naviy dunyosiga ijobiy ta'sir etadigan asar yarata olmaydi. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalar olami va ruxiyatini bilmagan adabiyotshunos xam nazariy va amaliy ahamiyatga molik ilmiy asarlar yaratishi amri maxoldir”.

Mustaqillik davri bola shaxsining har bir bosqichdagi intellektual xususiyatlari inobatga olingan holda, bola shaxsini individ sifatida birinchi o'ringa ko'tarish, ma'naviyatini shakllantirish, uni mustaqil fikrlashga yo'naltirish, shakllanish yo'lida o'zini harakatga undash, bolaga kashf etish lazzatini tuydirish, tarbiyalanish jarayonida bevosita ishtirokini ta'minlash, mashg'ulotlarda pedagogik hamkorlik hukmronlik qilishiga erishish, asarlar qaxramonlariga yaxshi yoki yomon obraz deb emas, inson deb qarashga o'rgatish kabi vazifalar yetakchilik qilmoqda. Ma'lumki, har bir asarning emotsional ta'siri qudrati badiiy tahlilga tortilganda yuzaga chiqadi. She'r, ertak, hikoya mutolaasidan so'ng, uning tahliliga kirisha borib, asar sarlavxasiga bolalar diqqatini tortish zarur. Masalan, «Aqlli bola», «Sexrgar kampir saboqlari», «Iltijo» va hokazolar.

Badiiy adabiyot mashg'ulotlarini haqiqiy ta'lim-tarbiya vositasiga aylanishida tarbiyachining bilimi, iqtidori, jonkuyarligi, mehribonligi, maslahatgo'yiligi yetakchi ahamiyatga ega. Bola shaxsining shakllanishi va kamol topishida badiiy adabiyotning, ayniqsa xalqning yurak dardlari, quvonch-shodliklari, g'am-alamlari, orzu-umidlarining silsilasidan yaratilgan xalq ertaklarining tutgan o'rni beqiyosdir.

Ma'naviy fazilatlarni o'zlashtirish jarayonida bolalarning yangidan-yangi ma'naviy extiyojlari paydo bo'ladi.

Shu ehtiyojlarni qondirishga harakat qilish esa bolada o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga intilish, izlanishni qaror toptiradi. Mavzu jihatidan turlicha bo'lgan bolalarbop adabiyotlarni muntazam ravishda o'rganib borish ularni milliy ma'naviyatimizga bo'lgan muhabbatini oshiradi, dunyoqarashini kengaytiradi va ahloqiy tuyg'ularning shakllanishiga yordam beradi. Bu tuyg'ular g'oyat ko'p qirrali va xilma-xildir.

Badiiy adabiyot vositasida maktabgacha 6-7 yoshdagi bolalarni ma'naviy shakllantirishni quyidagicha amalga oshirish mumkin:

- Ona Vatani va o'z xalqiga bo'lgan muhabbat tuyg'usi.

- maktabgacha 6-7 yoshdagi bolalarning insonlar va ular tomonidan yaratilgan ne'matlarga, mehnatga bo'lgan munosabatini shakllantirish.

- maktabgacha yoshdagi bolalarning uni atrofidagi tengdoshlari, qarindoshlari, jamiyat a'zolariga bo'lgan munosabati.

-uning shaxs sifatida o'z-o'ziga nisbatan qarashlarini qaror toptirish.

Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya oldida turgan asosiy maqsadlardan biri yosh avlodga ajdodlarimiz asrlar davomida orttirilgan ma'naviy boyliklarni singdirish, ularda insoniy fazilatlarni qaror toptirish va muntazam rivojlantirib borish, Vatan va millat oldidagi burch va mas'uliyatni his etishga o'rgatishdan iboratdir.

Adabiyotlar

1. Бердиева, Ханифа Мейлиевна Изучение научных основ механизации и автоматизации управления сельским хозяйством в курсе физики средней школы (на материале сельских школ Узбекистана). <https://nauka-pedagogika.com/pedagogika-13-00-02/dissertaciya-izuchenie-nauchnyh-osnov-mehanizatsii-i-avtomatizatsii-upravleniya-selskim-hozyaystvov-v-kurse-fiziki-sredney-shkoly-na-m>

2. Бердиева Х.М., Шаманов М.Х., Абдурахмонова Р.Х., Гулбоева Б.Н. Технология и методика обучения учащихся общеобразовательных школ // Студенческий вестник: электрон.

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

научн. журн. 2018. № 29(49). URL: <https://internauka.org/journal/stud/herald/49> (дата обращения: 10.03.2022).

3. Бердиева Х.М. Развитие профессиональных коммуникативных навыков педагогов в сфере образования. <https://s.siteapi.org/d955411c180ee78/docs/khhp4bee6u8g8goowcsg0gcg8os0kw>

4. Berdiyeva Muhabbat Meyliyevna Pedagogical support and development of the intellectual opportunities of children in preschool education <http://www.idpublications.org/wp-content/uploads/2019/12/abstract-pedagogical-support-and-development-of-the-intellectual-opportunities-of-children.pdf>

5. Meyliyevna Berdiyeva Muhabbat. The quality of preschool education at the present stage. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Year : 2021, Volume : 11, Issue : 10. <https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=10&article=351#aff001>

6. Meyliyevna Berdiyeva Muhabbat Tasks for preschool educators. <https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:sajmmr&volume=11&issue=10&article=023>

7. Berdiyeva M.M. Formation of intellectual culture of a preschooler. <https://scientific-conference.com/images/PDF/2019/55/International-scientific-review-LIV-ISBN.pdf>

8. Бердиева Ханифа Мейлиевна. Мактаб ўқувчиларини касб-хунарга ўргатиш йўллари. <https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2020/05/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20%E2%84%9626%20%282%29%20%28web%29%20%283%29.pdf>

9. Бердиева Ханифа Мейлиевна. Таълим тизимини модернизациялашдаги муаммолар ва уларни бартараф этиш усуллари. <https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2020/05/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20%E2%84%9626%20%282%29%20%28web%29%20%283%29.pdf>

10. Бердиева Мухаббат Мейлиевна. Педагогик қўллаб-қувватлаш асосида илк ёшдаги болаларни интеллектуал ривожлантириш. “Профессионал таълим тизимида ислохотлар: малака ошириш таълим турида инновацион ғоялар” мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конференция. <https://staff.tiame.uz/storage/users/546/articles/iMJfaUDoPQYZqSxUhG7olj9aZ9XSLff9CSErkMxL.pdf>

11. Usmanova Saodat Erkinovna. (2021). Formation of spiritual and moral qualities of preschoolers on the basis of public education. Middle European Scientific Bulletin, 11. <https://doi.org/10.47494/mesb.2021.11.421>

12. Усманова Саодат Эркиновна Возможности Использования Мультимедийных Компьютерных Программ В Развитии Детей Дошкольного Возраста. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=46438589>

13. Jumayeva malika aliyevna, & buriyev jamshid jumanazarovich. (2021). The role of activity in the upbringing and development of the child . International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 1(2), 126–129. Retrieved from <https://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss/article/view/40>

14. Jumayeva Malika Aliyevna. (2021). Independent musical activity in preschool organizations. Journal of Ethics and Diversity in International Communication, 1(1), 9–10. Retrieved from <https://openaccessjournals.eu/index.php/jedic/article/view/16>

15. Aliyevna, J. M. (2021). The Social Activity of the Educator with the Family. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 12, 401-403. Retrieved from <http://ejlss.indexedresearch.org/index.php/ejlss/article/view/338>

16. Lola Utasheva Shoturaevna. (2021). Social and pedagogical activities in preschool educational institutions. *JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 6(11), 412–415. Retrieved from <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/193>

17. Shoturayevna, U. L. (2021). Development of Creative Competence of Educators in Preschool Educational Institutions. *European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)*, 12, 395-397. Retrieved from <http://ejlss.indexedresearch.org/index.php/ejlss/article/view/336>

18. Radjabova G.M. The educational value of oral folk art for preschoolers // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

19. Berdieva M.M. Increasing the research activity of a pupil of a preschool organization // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

20. Berdieva Kh.M. Functions of the organization of advanced training of teachers in the field of education // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

21. Utasheva L.Sh. Introducing preschoolers to the world of fiction // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С. {см. сборник}.

22. Usmonova S.E. Plot construction as a means of developing the creative abilities of children // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

23. Muhammadiyeva F.T. Technology familiarization of preschoolers with various materials through cognitive research activities // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С

24. Mamatuminova M.G. Features of the use of animation in the development of creative abilities of preschoolers // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.